



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 22-yanvar

№ 1989

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 79-moddasi va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Saidov Habib Halim o‘g‘li – yozma ariza berganligi sababli O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Buxoro viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Buxoro tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Tashpulatov Baxrom Abdulbakiyevich – sudyalik qasamyodini buzganligi hamda unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganligi sababli O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 1, 6-bandlariga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, jinoyat ishlari bo‘yicha Namangan shahar sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Allaberdiyev Sanjar Abdushukurovich – sudyalik qasamyodini buzganligi hamda unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganligi sababli O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 1, 6-bandlariga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Surxondaryo viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov